ALI SAFIY MEROSIDA IJTIMOIY TENGLIK MASALALARI TAHLILI

Sh.G.Tangirberdiyev
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ali Safiy merosi doirasida ijtimoiy tenglik va adolat konsepsiyalarining falsafiy-axloqiy asoslari tadqiq etiladi. Ali Safiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarining jamiyat tarkibini muvozanatga keltirishdagi roli, ijtimoiy iyerarxiyani insoniy qadriyatlar asosida tartibga solish mexanizmlari va ushbu qarashlarning zamonaviy ijtimoiy muammolarga bo‘lgan yechimlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tenglik, insoniy qadriyatlar, ijtimoiy adolat, ijtimoiy muammolar.

Insoniyat tarixida ijtimoiy tenglik va adolat masalasi har doim falsafiy va siyosiy tafakkurning markazida bo‘lib kelgan. Ali Safiy merosi nafaqat diniy-axloqiy, balki ijtimoiy-huquqiy muvozanatni ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli tizimdir. Uning merosida jamiyatning barcha qatlamlari o‘rtasida teng huquqlilik va inson qadrini ulug‘lash tamoyillari markaziy o‘rin tutadi.

Tarixiy manbalarning tahlili Ali Safiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari o‘ta murakkab va beqaror bo‘lgan XV asrning II yarmi va XVI asrning birinchi choragidagi tarixiy sharoitlarda shakllanganidan dalolat beradi. Sabzavor, Nishopur, Hirot mintaqasida yashagan, davlat munosabatlarida faoliyat ko‘rsatgan otasi Husayn Voiz Koshifiy Sulton Abu Said Mirzo, Sulton Husayn Boyqaro hukmdorlik yillarida barqaror ijtimoiy-tabaqaviy maqomga, himoya va kafolatlarga ega rasmiy sunniy islom mudarrisi, mufassiri, voiz, xotib sifatida o‘z o‘g‘lining har tomonlama barqaror, tinch-osuda yashashi, mukammal islomiy va dunyoviy ta’limni egallashi uchun barcha sharoitlarni yaratgan edi.

Agar XV asrning 70-yillarining o‘rtalaridan boshlab Ali Safiyning otasi va ustozlari uning ilmiy va irfoniy shakllanishida katta obro‘ va ta’sir kuchiga ega bo‘lgan Xoja Ahror Valiy yetakchiligida kechishini ko‘zlab, yetuk piri-murshid rahnamoligida shakllantirila boshlagan “Himoyat tizimi”[1] imkoniyatlari asosida mukammal dunyoviy va irfoniy ta’lim-tarbiyasini nihoyasiga yetkazishi uchun Samarqandga yuborgan bo‘lsalar, 90-yillar boshlaridan Ali Safiy Hirotga qaytgan, poytaxt madaniy-siyosiy hayotida sezilarli ko‘zga tashlana boshlagan, voiz, xotib, adib, mudarris hamda xojagoniya-naqshbandiya g‘oyalari, ijtimoiy adolat, himoya, islom, shariatning ijtimoiy adolat prinsiplarini faol targ‘ib, tashviq eta boshlagan edi.

Mana shu yuqorida sanab, ko‘rsatilgan ijtimoiy asoslar Ali Safiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarining zamini, ularning shakllanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatgan obyektiv, tarixiy va ma’naviy shart-sharoit vazifasini o‘tagan edi, deyish mumkin.

XV asr nihoyasida temuriylar davlati hududlariga shimoliy-sharqdan shayboniylar, janubiy-g‘arbdan esa safaviylar tajovuzi[2] nafaqat Ali Safiy oilasini ostin-ustun qilib yubordi, balki shu davrdagi nisbiy barqaror hayotni ta’minlab turgan temuriylar davlatining o‘rtadan ko‘tarilishiga olib kelib, umuman, ijtimoiy-siyosiy, diniy-mafkuraviy va ma’naviy hayotni izdan chiqardi. Lekin alloma hayotining birinchi yarmida bo‘lgan nisbiy barqaror va osuda hayot, mukammal diniy-irfoniy ta’lim uning ilmiy-falsafiy dunyoqarashi bilan birga, alloma ijtimoiy-siyosiy, diniy-mafkuraviy qarashlarini, barqaror ijtimoiy-siyosiy, diniy-mazhabiy mavqeini ham muntazam, izchil tarzda shakllanishiga olib keldi.

Birinchidan, Ali Safiy faol, yaratuvchan, ijodkor shaxs, musulmon jamiyati talab va qadriyatlarini yuksakka ko‘tara olgan ko‘zga ko‘ringan, nufuzli diniy arbob, voiz, xotib, mudarris, davlat arbobi sifatida shakllanib ulgurgan edi.

Ikkinchidan, bu ma’naviy asosning bevosita oqibati o‘laroq Ali Safiy, ayniqsa, 1497-1511 yillarda oy-yil sari safaviylar va shayboniylar o‘rtasida qo‘ldan-qo‘lga o‘tib turgan poytaxt

[1] Paul Jurgen. Die politische und soziale Bedeuting der Naqsbandiyyain XV jahrhudert. –Berlin: Walter de Cruter, 1991. (Марказий Осиёда XV асрда Нақшбандиййанинг сиёсий ва ижтимоий ўрни). -P. 164-207 (немис тилида).
[2] Зиёев Ҳ. Буюк Амир Темур салтанати ва унинг тақдири. –Т.: Маънавият, 2008. –Б. 99-111.

Hirotdagi omonat, xatarli harbiy-siyosiy, diniy-mazhabiy to‘qnashuvlar, taassublar avj olib turgan murakkab sharoitda faol, izchil sunniy ijtimoiy-siyosiy mavqeda turib, sunniy islom davlati – temuriylar davlatini himoya qildi. Shu bilan birga, u shafqatsiz, murosasiz va qatag‘on safaviy shialar tajovuzi, bosqiniga qarshi poytaxt aholisini, davlat arboblarini, sunniy musulmonlarning barcha tabaqa, toifa, qatlamlarini vatanparvarlik asosida ham o‘z amri-ma’rufi, ya’ni siyosiy targ‘iboti vositasida birlashtirishga, bosqinchilarga qarshi kurashni tashkil etishga urindi.

Uchinchidan, hatto o‘zining xos e’tiqodi asosini tashkil etgan tasavvufiy-irfoniy hayot tarzi, targ‘ibotlari, ayniqsa, xojagon-naqshbandiya g‘oya, qadriyatlari “himoyat tizimi” imkoniyatlarini ishga solgan holda safaviylar tajovuzi va qatag‘on siyosatiga qarshi kurash olib bordi.

Islom an’analari ruhida shakllangan Ali Safiy ijtimoiy-siyosiy voqea, o‘zgarishlarni, bu Xudoning taqdiri, men hech narsani o‘zgartira olmayman, deb kuzatuvchi, loqayd bo‘lib o‘tira olmas edi. “Darhaqiqat, fayzi Ilohiyda qusur yo‘q turur, qusur tolib tarafida turur. Vaqtikim, tolib raf’i mavoni’i (to‘siqlarni yo‘q) etsa, albatta ... ... Ixtiyorning hikmati odamlarda ko‘broq turur. Vaqtikim, mavoni’i tabiat (tabiiy to‘siqlar)nikim, asl bo‘lub turur, ixtiyorning quvvati ko‘b va jahd bila ul mavoni’ilarini raf’ etmak kerak”[1] degan va barchani xushyor bo‘lishga, jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni yechishga harakat qilishga, ijtimoiy faol bo‘lishga da’vat etgan.

Garchi Ali Safiy an’anaviy sodiq sunniy musulmon bo‘lsa-da, taqdiri ilohiyni umuman tan olgan holda, inson sohibi iroda ekanligi va demak, o‘z aqli-zakovati bilan, irodasi bilan hayotiy to‘siqlarni yengib o‘ta olish, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarni amalga oshirish, shu jumladan siyosiy maqsad, intilishlarida, umuman, hayotda nisbatan faol, irodali bo‘lishi lozim, degan pozitsiyada turgan. Shu bilan birga, o‘z maqsadiga yetish yo‘lida inson duch kelgan qiyinchiliklarni matonat bilan yengib o‘tishi lozim, kayfiyatsizlik, omadsizlik uni tushkunlikka, kayfu safoga berilib, muammolar yechimini izlamaslikka olib kelmasligi kerak.[2]

Alloma ijtimoiy-siyosiy qarashlari o‘z ifodasini topgan ma’lumotlar “Latoif ut-tavoif”da muallif tomonidan shoir va mutafakkir Rashididdin Votvot borasida keltiriladi. Ali Safiyning bunga bag‘ishlangan hikoyati bayonida milliy davlatchiligimizning Sulton Jaloliddin Malikshoh, Sulton Sanjar, Xorazmshoh Otsiz, El Arslon, Sultonshohlar hukmronlik qilgan davrlardagi taraqqiyoti to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.[3]

Inson o‘z shaxsiyati, oilasi va jamiyatda yuksak orzu maqsadlar, adolat, oqillik talabida bo‘lishi, jamiyatni o‘zi, maqsadlari, intilishlari borasida tashvishga qo‘ymasligi, xushyor, ongi va irodasiga o‘zi sohib bo‘lishi, o‘tkinchi, past kayfiyat, intilishlardan qochishi, buning uchun esa, Ali Safiyga ko‘ra uning aqli-idroki nafaqat xushyor, balki faol, anglangan faoliyat holatida bo‘lishi lozim.

Shu bilan birga, Ali Safiy inson iroda-ixtiyori, faolligini mavhum yoki irfoniy jiddi-jahd, riyozat shaklidagina tushunmagan, balki mamlakat, yurt, Vatan, xalq tinchligini va xavfsizligini ta’minlash, buning uchun kerak bo‘lsa faol harbiy-siyosiy jiddi-jahdda bo‘lish – vatanparvar va ayni paytda, sulhparvar bo‘lish maqsadga muvofiqligini tushungan. Alloma shu munosabat bilan Xoja Ahrorning quyidagi qarash, hikmatini keltiradi: “ ... agarchandkim, har fe’l, agar xoh haddi shar’iy mutavajjih bo‘lsun, xoh bo‘lmasun, bu qavldin tururkim, Haq subhonahu va taoloning aqdori va tamkini va xalqi bila mavjud bo‘lub turur, lekin murod ul tururkim, ... qazovu qadarning haqiqatig‘a nazar etmak kerak, to urush va fitna (sodir) bo‘lmasun ...”.[4] Bu hikmatda esa Ali Safiy vatanparvarlikning ifodasini ko‘rgan.

Alloma asarlarida din va tasavvuf vakillari, yetuk piru murshidlarning tarkidunyochilik, taqdiri azalning hukmini kutib yashash emas, balki jamiyatda taraqqiyparvar fikrlar va sog‘lom muhit barqaror bo‘lishi yo‘lida hukmdorlar, amaldorlar bilan muloqotda bo‘lish, ularning siyosatiga “tuzatuvchi” sifatida aralashishlari lozimligi asoslangan.

[1] Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot (Obihayot tomchilari). –T.: Abu Ali ibn Sino, 2004.
[2] Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot (Obihayot tomchilari). –T.: Abu Ali ibn Sino, 2004.
[3] Faxriddin Ali Safiy. Latofatnoma. O‘sha nashr, –B. 83; 87-91.
[4] Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot (Obihayot tomchilari). –T.: Abu Ali ibn Sino, 2004.

Ali Safiy yozgan barcha asarlariyu o‘zining ongli ijtimoiy-siyosiy faoliyatida adolat, ijtimoiy hamkorlik, insonparvarlik, tinchliksevarlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi umuminsoniy g‘oyalarga amal qilgan va bu g‘oyalar hozirgi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy tamoyillari sifatida amal qilmoqda. Bu esa Ali Safiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarining ahamiyati davrlar o‘tgani sari oshib borishidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ziyoyev H. Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri. –T.: Ma’naviyat, 2008. –B. 99-111.

2. Faxriddin Ali Safiy. Latofatnoma. O‘sha nashr, –B. 83; 87-91.

3. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot (Obihayot tomchilari). –T.: Abu Ali ibn Sino, 2004.

4. Paul Jurgen. Die politische und soziale Bedeuting der Naqsbandiyyain XV jahrhudert. – Berlin: Walter de Cruter, 1991. (Markaziy Osiyoda XV asrda Naqshbandiyyaning siyosiy va ijtimoiy o‘rni). -P. 164-207.